



**BITIRUVCHI SINIF O‘QUVCHILARINI KASB-HUNARGA
YO‘NALTIRISHNING INTEGRATIV PEDAGOGIK MODELINI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.013>

Asilova Sanobar Xatambojevna

Qo‘qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishning integrativ pedagogik modeli ishlab chiqildi va tajriba-sinov asosida uning samaradorligi aniqlandi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tizimli va faoliyatli yondashuvlar integratsiyasi asos qilib olindi. Tajriba natijalari modelni qo‘llash orqali o‘quvchilarning kasbiy motivatsiyasi, o‘zini anglash darajasi va ongli kasb tanlash ko‘rsatkichlarini sezilarli oshganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kasb-hunarga yo‘naltirish, integrativ model, kasbiy motivatsiya, pedagogik mexanizm, bitiruvchi sinf, kasbiy o‘zini anglash

Аннотация. В данной статье разработана интегративная педагогическая модель профессиональной ориентации выпускников и определена ее разработка на основе экспериментального тестирования. Исследование основывалось на интеграции компетентностно-ориентированного производства, личностно-ориентированного образования, систематического и активного производства. Благодаря использованию модели удалось наблюдать повышение уровня профессиональной мотивации, самосознания и способности видеть профессиональные проявления студентов.

Ключевые слова: профессиональная ориентация, интегративная модель, профессиональная мотивация, педагогический механизм, выпускной класс, профессиональное самосознание

Annotation. in this article, an integrative pedagogical model of vocational orientation of graduating students was developed and its production was determined on the basis of experimental testing. The research was based on the integration of competency-based production, personality-oriented education, systematic and active production. Through the use of the model, it was possible to observe the increase in the level of professional motivation, self-awareness and the ability to see the professional manifestations of students.

Keywords: vocational orientation, integrative model, professional motivation, pedagogical mechanism, graduating class, professional self-awareness

Kirish. Kasb-hunar tanlash jarayonlari har bir insonda muhim jarayon hisoblanadi. Mamalakatimizda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi juda katta ahamiyat berilib, ularni kasb-hunarga yo‘naltirishda bir qator samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. “Maqsadimiz — maktab bitiruvchisi hech bo‘lmaganda bitta kasbni egallab katta hayotga qadam qo‘ysin”, — deydi prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2024 yil 5 fevralda yig‘ilihsda so‘zlagan nutqida.⁹ Bundan ko‘rinib turibdiki bugungi globallashuv va mehnat bozorining transformatsiyasi sharoitida maktab bitiruvchilarini ongli kasb tanlashga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Xalqaro miqyosda kasbiy orientatsiya ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib, UNESCO hamda OECD tomonidan yoshlarni kelajak kasblariga mos tayyorlash strategik vazifa sifatida belgilangan. Maktab amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish ishlari ko‘pincha tizimsiz tarzda olib boriladi. Natijada esa o‘quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasi yetarli shakllanmaydi va tanlov ko‘pincha tashqi omillar ta’sirida amalga oshadi.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy faoliyat insonning shaxs sifatidagi kamolotida hal qiluvchi omillardan biri ekan, kasb tanlashni dolzarb ijtimoiy muammo deb tushunish o‘rinli bo‘ladi.¹⁰ O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish haqida ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini keltirib o‘tishgan. Sharq mutaffakirlaridan Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to‘g‘risida o‘zining fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta’lim – so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb- hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu fikrlardan anglashimiz mumkinki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan. Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning kasb-hunarga o‘rgatish borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi olim. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi. XIX asrda o‘zining ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari bilan shuhrat qozongan Ahmad Donish o‘qituvchilik kasbi haqida juda ham ma’noli fikrlar bildirgan, Ahmad Donishning kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish,

⁹ <https://daryo.uz/2024/02/05/shavkat-mirziyoyev>

¹⁰ https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_5r7cubcgsf38vjbygsaaajb8jyysgvu7gomcs9euey18ulgx0nfanobkz157kn3r5fuldz7hmxe89.pdf

kasb egalari xususidagi fikrlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, uning o‘qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida katta e‘tibor berganligini ko‘ramiz. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki kasb-hunar tanlash va uni egallash masalasi hamish dolzarb hisoblangan.

Metododlogiya

Tadqiqotda maqsadi, bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishning integrativ pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: So‘rovnoma, test, kuzatish, suhbat metodlari. Tadqiqotda Norin tumanida joylashgan maktablarning 11-sinfida ta‘lim olayotgan 300 nafar o‘quvchi 150 nafari tajriba guruhida, 150 nafari nazorat guruhida ishtirok etishdi.

Muhkama va natijalar

Aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko‘rsatdiki har ikkala guruhda o‘quvchilarni kasbiy yo‘nalganlik darajasi bir xil. Yani tajriba guruhida yuqori daraja ko‘rsatkichi 18%, nazorat guruhida esa 17% ni tashkil etdi. Past daraja 42% va 44% ni ko‘rsatdibu bizga guruhlar orasida sezilarli farq yo‘qligini tasdiqlab beradi. Shakllantiruvchi bosqichda bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish uchun integrativ pedagogik model asosida ishlandi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar quyidagicha: Tajriba guruhida : Yuqori natija-52%, O‘rta natija 38%, Past natija 10%. Nazorat guruhida esa: Yuqori natija-26%, O‘rta natija 41%, Past natija 33%. Natijaga asoslanib tajriba guruhida yuqori daraja 34%ga, past daraja 32% ga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Nazorat guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarish kuzatilmadi. Natijalarga asoslanib integrativ pedagogik model orqali o‘quvchilarda kasbiy ongini shakllantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatildi, ulari o‘z qobiliyatlarini anglash darajasi sezilarli oshdi, kasb tanlash motivatsiyasi kuchaydi, bilimlari kengayib ongli kasb tanlash ko‘rsatkichi ortdi. Kelgusida ushbu modelni yanada takomillashtirib maktablarga joriy etish orqali bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov I. Turmush tarzi, urf-odatlar va odob. -T.: O.,zbekiston, 1983
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. (Monografiya). T.: Fan, 2004
3. D. M. Anvarova. Fan va texnologiya 2016 yil. O‘quv qo‘llanma. Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari.
4. S.Asilova, N.Usmonova Qo‘qon 2024 yil O‘quv qo‘llanma, Kasbiy pedagogika.